atındağı mámleketlik sıylıqtıń laureatı, 1984-jılı Ózbekstan xalıq bilimlendiriw ağlası, 1986-jılı Miynet veteranı medalların alıwǵa miyasar boldı. B.Nadırov miynet jolı dáwirinde óz qosıqshılıq mektebin dóretken, xalqımızdıń talantlı jasların akademiyalıq qosıqshılıq jolında oqıtqan birinshi ustazlardan bolıp esaplanadı.

Ádebiyatlar

1. Dmitriev L.B. «Основы вокальной методики».-M.: Muzıka, 1968.
2. Kallibekov N. (2022). Kuylash musiqiy tashkil etish so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan musiqa san`ati. Science and Education, 3(12), 788-794.
3. Mullaxandov D.X. «Некоторые вопросы узбекского вокального образования». - T. G.Gulyam, 1954.
4. Muxamedova G. «Xonandalik uslubiyati asoslari» O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Toshkent 2007.
5. Nadırova A. “Qaraqalpaq muzıka tariyxı” Nókis. “Qaraqalpaqstan”. 2019.
6. Xodjametova G. (2022). «Talabada xonandalik jarangdorligini to‘g‘ri tashkil etish». Евроазийский журнал академических исследований. 2(13), 1300-1305.

REZYUME. Tovush sifatini ko‘zlangan natijada tarbiyalashda ovozni ko‘rsata bilish katta ahamiyat kasb etadi. Ko‘rgazmali qurollar ko‘ra oladigan va sodda bo‘lgani uchun ham kerakli kunikmalarni shaxsan topishga majbur etadi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi yaxshi ovozga ega bo‘lishi lozim, o‘quvchi esa taqlid qobiliyatiga ega.

РЕЗЮМЕ. Способность показывать голос имеет большое значение в обучении ожидаемому результату качества звука. Демонстрационное оружие также позволяет лично обрести необходимые навыки, поскольку оно наглядно и просто. Для этого у самого учителя должен быть хороший голос, а у ученика - способность подражать.

SUMMARY. The ability to display the voice goes a long way in teaching the expected sound quality outcome. Demonstration weapons also allow you to personally acquire the necessary skills, as they are visual and simple. For this, the teacher himself must have a good voice, and the student must have the ability to imitate.

PEDAGOG USTOZ - NAJIMATDIN ANSATBAEV

R.Qazaqbaeva - *o‘qituvchi*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: ustoz, pedagog, metod, san’at, teatr, rejissyor, aktyor.
Ключевые слова: педагог, метод, искусство, театр, режиссер, актер.
Key words: teacher, pedagogue, method, art, theater, director, actor.

Pedagog so‘zi – (yun-tarbiyachi) pedagogika mutaxassisi, bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi, shu soha bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxsdir. Mana chunday insonlardan biri pedagog ustoz N.Ansatbaevni aytsak bo‘ladi. U umr bo‘yi o‘zini san’atga, teatrga baxshida qilgan buyuk san’atkor.

Hozirgi kunda esa O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filialida «Rejissura va aktyorlik mahorati» kafedrasida professor o‘qituvchi bo‘lib o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda. 60 yildan ortiq ijodiy mahoratga ega bo‘lgan ustoz bugungi kunda san’at va madaniyatning sirlarini yoshlarga o‘rgatib, kelajagimiz uchun zamonaviy salohiyatli kadrlar tayyorlab kelayotgan institutning ustozi hisoblanadi. U o‘z shogirdlariga rejissura va aktyorlik mahorati fanida dars o‘tib kelmoqda. Men Najimatdin Ansatbaevning 2017-2020 yilgi «Musiqali teatr rejissyorligi» kursida tahsil olganman. O‘sha paytlari ustozimning dars o‘tish uslubi, o‘zgacha metodlari, dasrlarni tushuntirishlari meni rejissuraga bolgan qiziqishimni uyg‘otgan.

Ustoz dars o‘tish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi. Har bir rejissorning hayoti va ijodin sinchiklab o‘rgatadi. «…agar buyuk rejissor bolmoqchi bolsang, har jabhadan xabardor bo‘lishing kerak. Ko‘p kitob o‘qigan, aktyorlarga nisbatan bir pog‘ona yoqori bo‘lishing lozim»,-deb ko‘p ta’kidlar edi. Shuning uchun haftaning bir kuni kitob, gazeta, jurnal, piesa o‘qishga bag‘ishlar edik.

Talabalarga rejissyorlarning, aktyorlarning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar topib olib kelishimizni topshiriq qilib berardi va vazifalarni kitobxonlik kunida aytib berardik. Bu talabalarni

erkin izlanishga, ma'lumotlar toplash va esta saqlash salohiyatini mustahkamlaydi. «…Ak-tyor bo'lish uchun ko'pgina sohalar bo'yicha savotga ega, ayniqsa adabiyot va san'atni chindan sevmog'i, uning sir-sinoatlarini chuqur anglagan bo'lishi kerak. Lekin shunda ham u aktyor hisoblanmaydi. Haqiqiy aktyor bo'lishi uchun tafakkuri yetuk filosof bo'lmasa ham gapga usta bolishi lozim. Shuni aytish joizki, bu qobiliyat ham aktyor bolish uchun yetarli emas. Haqiqiy aktyor yuqorida tilga olingan xususiyatlar bilan bir qatorda adabiy personajlarni hayotiga chuqur kirib borishi, ularning his tuyg'ulari, orzu umidlarini to'laqonli ochib berish, o'ziga gavdalantirgan obraz orqali har bir tomoshabinning qalbiga kirib borishi unda chuqur joy olishi uchun hudo bergan talanti bolishi kerak»,-deb ko'b bora ta'kid-lardi. Ustozimiz reja bo'yicha kurs uchun spektakl sahnalashtirishga kirishgan edi. U sahnalashtirgan spektakllarni faqat teatrda, televizorda tomosha qilganmiz. Lekin ustozning katta asarni sahnalashtirish jarayonini ko'rmaganmiz.

Qoraqalpoq sahnasining buyuk rejissyori bizlarga qanday vazifa beradi? biz buni uddalay olarmikinmiz? degan hayajon bilan turardik. Najimatdin Ansatbaevning teatrda sahnalashtirgan spektaklida ro'l ijro qilgan aktyor, aktrisalar «…Najimatdin Ansatbaev repetitsiya jarayonida qattiq qo'l, temir intizomni saqlagan, teatrda chivin uchsa ovozi eshitilmaydi»,-deb aytishar edi. Teatrda iqtidorli professional aktyor, aktrisalarga rejissorlik qilish uslubi boshqa. Endigina teatr san'atiga qadam tashlayotgan talabalarga spektakl sahnalashtirish ikki borobor qiyin. Ustozning pedagogik siri shunda ediki «…Yosh nihol, chiroyli, to'g'ri o'sishi uchun asta-sekin parvarish qilasan, suv quyib, chaqalarin putalaysan, yonidan o'sgan gazanda o'tlarni olib tozalaysan. Shundagina sen niyat qilgandek natijaga erishasan. Endi qadam tashlagan talabalar ham ana osha niholdek. To'g'ri yo'lga solib, tarbiyalab, mehr berishni talab qiladi».

Har bir talaba, har xil xarakterga ega. Ularning psixologiyasi har xil, shuning uchun ham ro'l taqsimlashda talabalar xarakteriga, psixologiya-siga qarab ro'llar beriladi. Misol qilib aytsam, Qirg'iz dramaturgi Beksultan Jakievning «Ota tag'diri» spektaklin sahnalashtirishdan oldin piesani toliq o'qib, piesaning avtori, epizodik ro'llarni ham erinmasdan xarakterlarini tushuntirib berdi. «…Har bir aktyorning qobilyatiga qarab ro'l taqsimlash juda murakkab vazifa. Men ro'l taqsimlashni, doktorning bemorga diagnoz qoyishi bilan taqqoslayman. Har bir ro'lni, har bir tekstni analiz qilib, sahnaga chiqsang, mezansena paytida ham rolni ijro qilish vaqtida ham aktyorga osan bo'ladi».

«Ota tag'diri» kurs talabalariga ro'llarni taqsimlab berdi. Bosh qahramon «ota» rolini og'ir bosiq, to'rtinchoq talabaga berdi. Hammamiz hayron bolib qoldik. Chunki talabalar orasida iqtidorli, chaqqon, xarakterli rollarni oynay oladigan talabalar ko'p edi. Biroq ustozning talabalarning psixologiyasidan kelib chiqib «ota» rolin ishonib topshirgan talaba yigit spektakl yakunida chindan ham shu ro'lga loyiq ekanligin tomoshabinlarning ehtiroslaridan ko'rish mumkin edi. Bu esa ustozning kasbiy mahorat yuqo-riligidan, talabalar bilan ishlash metodi o'z-gachaligidan dalolat beradi. Ustozning rejissura fani jarayonida talabalarning har bir olib kelgan rejissorlik ishini sinchiklab tomosha qilar edi.

Kamchiliklarini hayotiy misollar bilan tushuntirib, to'g'ri yo'nalishga yo'naltirardi. Ko'p ta'kidlaydigan so'zlari «…San'at instituti tala-balarga talantni sovg'a qilmaydi. Ular rejissor bo'lib tug'ilishi kerak». San'atga kirib kelgan ekansiz, sizdan talab qilinadigan narsalar: o'z ustingizda ishlash, ko'p kitob o'qish, spektakllar tomosha qilish kundalik ishingizga aylanishi kerak. Rejissor oyna, u aktyorlarning individual xusu-siyatlarini, ijodini to'g'ri aks ettirishni bilmog'i lozim.

Ustozning rejissorlik siri bo'lsa kerak imtihon paytida esa hech bir talabani maqtamas edi. Boshqalar yaxshi sahnalashtirilgan, aktyorlar zo'r oynadi, dekoratsiyalar yangicha ishlangan deb e'tirof qilsa, ustozim esa talabalarning kam-chiliklarini aytar edi. Biz buni hech tushunmas edik. Yana va yana ijod qilishga kirishardik. Yangi inssenirovkalar, yangi piesalar o'qib, ustoz ta'kidlagan kamchiliklarni to'ldirib, o'zimizning ustimizda ishlashda davom etardik. Bir kuni jurnalda o'qib qoldim «…ijodkorni sindirmoqchi bolsang, uning ijodini maqta», osha vaqtda ustozimning bizlarga bermoqchi bolgan ulkan dars maktabi ekanligini tushundim.

Qoraqalpoq sahnasida takrorlanmas spektakllar bilan teatr repertuarini boyitgan insondan dars olishning o'zi bolajak rejissorlarga katta mahorat darsi hisoblanadi. Biz shogirdlar, ulug' ustozdan ilm, bilim, ijod, hayot bulog'idan suv ishganimizga g'ururlansak arziydi. Uning butun hayoti shogirdlari haqida qayg'urish, ularning kelajagi haqida oylaydi. U talabalarining muvaffa-qiyatsizliklarini ko'rib qayg'uradi, muvaffa-qiyatlaridan esa quvonadi.

Ustoz Najimatdin Ansatbaev ta'lim berishda nafaqat kasbiy mahoratga o'rgatish, balki madaniyatni rivojlantirish va bo'lajak rejissorlarni

ma'naviy jihatdan tayyorlashdir deb hisoblanganligi bejiz emas. Aktyorlikda, rejissorlikda o'zini sinab ko'rgan bu inson o'zining hayot yo'lini qoraqalpoq teatr san'atidagi pedagoglik yo'li bilan bog'laydi. Pedagoglik yo'lida «…Hayot yo'lida olgan bilim va tajribalariga tayanib, teatr san'atiga qiziqishi bor insonlar uchun 2020-yil «Teatr ha'm aktyor» qoraqalpoq, o'zbek, rus tillarida kitob yozadi. Uzoq yillar davomida o'qigan kitoblaridan, talabalik paytidagi kundalik daftariga yozgan ustozlarining ogitlarini ham «Danalar so'zi» bobiga kiritib ketadi». Ustoz yosh avlod oldidagi vazifasin chuqir sezgan holda o'ziga kuch-g'ayrat topa oldi. Pedagog-ustoz sifatida o'z yutuqlaridan qoniqmaydigan, bir yerda toqtab qolishni o'ziga munosib ko'rmaydigan insondan o'rnak olsak arziydi.

Adabiyotlar

1. N.Ansatbaev. "Teatr hám aktyor" No'kis, 2020 yil.
2. B.Saypullaev, T.Bayandiev. "Qaraqalpaq saxnasınıń Berdaq shayırı".-Tashkent, 2014.
3. https://berdax-teatr.uz

REZYUME. Maqolada ustoz shogird an'anasining namoyon bo'lishi, professor Najimatdin Ansatbaevning dars o'tish uslubi, o'zgacha metodlari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о проявлении традиции учитель-ученик, в стиле преподавания профессора Наджиматдина Ансатбаева и специальных методах.

RESUME. The article talks about the manifestation of the teacher-disciple tradition, professor Najimatdin Ansatbaev's teaching style and special methods.

UDK. 78-79; (2023)

ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДА КӨРКЕМ ӨНЕР КАДРЛАРЫН ТАЯРЛАЎ

Ы.Ж.Моянов – *педагогика илимлери бойынша философия докторы (PhD), доцент,*
Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер ҳәм мәденият институты
Нөкис филиалы

Таянч сўзлар: театр, тонг нури труппаси, санъат кадрлари, пьеса, биринчи актёрлар, драма, клуб, кутубхона, ҳаваскорлар тўгараклари, мусиқа, бахши, жиров, қиссахон, созандалар, раққослар, шанг қўбиз чаладиганлар.

Ключевые слова: театр, группа Тонг нури, художественные кадры, пьеса, первые актеры, драма, клуб, библиотека, любительские кружки, музыка, бахши, жиров, кыссакан, солисты, танцоры, играющие на шанг-кобызе.

Key words: theater, Ton nuri troupe, artistic personnel, play, first actors, drama, club, library, amateur clubs, music, bakhshi zhirov, kissakan, soloists, dancers, players of the shang-kobyz.

Тарийхый тәжирийбе көрсеткениндей-ақ ҳәр бир мәмлекет адамларының қәнигелиги бойынша ақыл мийнети менен жумыс ислейтуғын айрықша бир социаллық қатламсыз күн көрмеген ҳәм күн көре алмайды.

Бул қатламға инженерлер, техниклер, агрономлар, врачлар, муғаллимлер, көркем өнер хызметкерлери ҳәм ақыл мийнетиниң басқа да хызметкерлери киреди.

«Республикада әмелге асырылып демократиялық ҳәм экономикалық реформаларды кадрлар менен беккемлеўде ҳәм ақыл зийреклигин беккемлеў ҳәм асырыўға қаратылған деп көрсетип өтеди». [1; 258; б]. Қарақалпақ халқының миллий көркем өнери кең көлемде раўажлана баслады. 1917-жылдың ақырында биринши мәмлекетлик көркем өнер музыкасы драма жәмийетиниң бөлими ашылды. Оның ўазыйпасына Әмиўдәрья бөлиминдеги ҳәўескерлер дөгереклерин бирлестириў оларға басшылық етиў, қалаларда төлемли спектакллер, концертлер ҳәм кешелер шөлкемлестириў сондай-ақ, орайлық қалалардың профессионал коллективлер шақырыў илажлары кирилди. Хийўадағы өзбек театр топары Хорезм республикасының мәмлекетлик театр жәмәәтиниң гастроллары Қоңыраттың мәдений турмысында үлкен ўақыяға айланды.

Хийўа артистлериниң өнер көрсетиўлери жергиликли халық арасында үлкен қызығыўшылықлар туўғызды ҳәм олар арасында өзлериниң үлкен театр дөгерегин шөл-